



## SUD EKSPERTIZA XULOSALARINI BAHOLASH AMALIYOTI

Sobirov Furkat Baxromboy o'g'li

IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar  
kafedrası boshlig'i o'rinbosari, y.f.b.f.d.(PhD), dotsent  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18608139>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-fevral 2026 yil  
Ma'qullandi: 08-fevral 2026 yil  
Nashr qilindi: 11-fevral 2026 yil

### KEYWORDS

xatshunoslik ekspertizasi,  
ekspert xulosasi, tadqiqot,  
xulosalarni baholash, ichki  
ishonch.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida sud ekspertiza xulosalarining ilmiy asoslanganlik masalasini baholashning o'ziga xos xususiyatlari sud-xatshunoslik ekspertizasi misolida atroflicha tahlil qilingan bo'lib, bunda sud-xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha tuzilayotgan ekspertiza xulosalarini baholashning huquqiy asoslari, mazkur jarayonni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammoli holatlar va ularni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan takliflar keltirib o'tilgan.*

Xatshunoslik ekspertizasi xulosalari bugungi kunda jinoiy, ma'muriy va fuqarolik ishlari bo'yicha olib borilayotgan tekshiruv jarayonlari uchun juda muhim bo'lgan faktik ma'lumotlarni beruvchi an'anaviy ekspertiza tadqiqot turi hisoblanadi [1]. Garchi hayotimizga elektron hujjatlar kundan kunga tobora ko'proq kirib kelayotgan bo'lsada, xatshunoslik ekspertizasi o'zining an'anaviy kriminalistik ekspertizalar ichida yetakchilik mavqeyini haligacha saqlab kelmoqda [2; 81-85-b].

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarning nechog'lik haqiqatga yaqinligini o'tgan oxirgi 2 yil (2022 va 2023 yil) ning 12 oyi mobaynida IIV EKBM va uning hududiy IIO EKM ekspertlari tomonidan bajarilgan an'anaviy kriminalistik ekspertizalar yuzasidan statistik ma'lumotlarni o'rganish jarayonida tahlil qilish mumkin. 2022 yilda xatshunoslik ekspertizasi xulosalari jami bajarilgan an'anaviy turdagi ekspertiza xulosalari ichida ulushi 33,4%ni, 2023 yilda esa 34,8% ni tashkil etdi [3]. Mazkur ko'rsatgich bilan xatshunoslik ekspertizasi o'z tarkibiga daktiloskopik, trasologik, ballistik, portret, sovuq qurollar, xatshunoslik va hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizalari kabi jami 7 ta ekspertiza tadqiqotlarini olgan an'anaviy kriminalistik ekspertizalar ichida yaqqol yetakchi hisoblanadi.

Ma'lumki huquqni qo'llash amaliyotida vujudga keladigan murakkab savollarga javob topish maqsadida turli ekspertizalar tayinlanadi. Mazkur maqolada bugungi kunda xatshunos-ekspertlar tomonidan shakllantirilayotgan xulosalarning ishni sudga qadar yuritish bosqichida ilmiy asoslanganlik darajasini baholash bilan bog'liq bo'lgan bir qator bahsli holatlar ko'rib chiqiladi. Buning uchun dastlab sud ekspertiza tayinlashning protsessual asoslarini o'rganib tahlil qilish lozim.

H.X.Boltayev, S.O.Urozbayev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan  
"Jinoyat ishini yuritishda

ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari" nomli uslubiy qo'llanmada sud ekspertizasi tayinlashning protsessual asosiga nisbatan quyidagicha ta'rif keltirib o'tilgan: sud ekspertizasi tayinlashning protsessual asosi bu - vakolatli davlat organining uni tayinlash haqida asoslantirilgan qarori(ajrimi) hisoblanadi [4; 26-b].

O'zbekiston Respublikasi Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunning 17 moddasi hamda JPKning 180 moddasiga asosan sud ekspertizasi tayinlash vakolati tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi hamda sudlarga berilgan. Mazkur jarayonda dastlabki nomi ko'rsatilgan organ (shaxs) lar ekspertiza tayinlash uchun qaror oxirgisi ya'ni sud esa ajrim chiqaradi [5,6].

Bugungi kunda dastlabki tergov jarayonida ekspert xulosasini baholash masalalari jinoiy dalillar nazariyasining muhim muammosidir [7; 3-b]. Shu nuqtai nazardan ekspert xulosasini baholash jarayoni xar doim o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Xatshunoslik ekspertizasi xulosalari mazmunidan qat'iy nazar ekspertiza tayinlagan organ (shaxs) tomonidan baholanishi lozim [8]. Quyida ekspert xulosasining baholanish tartibi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 187 moddasida ekspert xulosasini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholaydi deb aniq ravshan keltirib o'tilgan [5].

Ushbu moddaga berilgan sharhda har qanday dalil singari ekspertiza xulosasi ham dalillarni baholashning umumiy prinsipi asosida tahlil qilinadi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sudyaning ichki ishonchi asosida baholanadi deb qo'shimcha qilingan. Shu o'rinda "ichki ishonch" o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tsak.

**Ichki ishonch** – bu dalilni maqbulligi, yetarliligi, ishonchligi yuzasidan qaror chiqarishi mumkin bo'lgan shaxslarning o'z amalga oshirayotgan harakatlarning adolatli ekanligiga ishonchi yig'indisidir [9; 369-b].

H.X.Boltaev, S.O.Urozbaev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan "Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari" nomli uslubiy qo'llanmada ham sud ekspertining xulosasini baho berish dalillarga baho berishning umumiy qoidalarga ko'ra amalga oshirilishi keltirib o'tilib ushbu jarayon quyidagi ikkita bosqichdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

- Ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibiga doir protsessual talablarga rioya etilganligini tekshirish;
- Ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligini tekshirish [4; 68-b].

Yuqorida keltirib o'tilgan ikkita bosqichning birinchi bosqichi ya'ni "Ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibiga doir protsessual talablarga rioya etilganligini tekshirish" jarayonining bevosita ekspertiza tayinlagan organ mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilishi bu tabiiy va bu borada ortiqcha hech qanday savol bo'lishi mumkin emas. Biroq ikkinchi bosqich bilan bog'liq bir qator aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan holatlar mavjud. Ma'lumot uchun sud ekspertining xulosasini baho berishning ikkinchi bosqichi bu "Ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligini tekshirish"dir.

Rossiyalik tadqiqotchi olim G. L. Bordyugov o'zining "Jinoyat protsessida sud ekspertining xulosasi va uning baholanishi" nomli maqolasida ekspert xulosasining baholanishi g'oyat murakkab va ko'p pog'onali jarayon ekanligi hamda xulosaning baholanish bosqichi nafaqat tergovchi (sudya), balki ekspertning o'zi uchun ham nisbatan murakkab ekanligini ta'kidlab o'tgan [7; 370-b].

H.X.Boltaev, S.O.Urozbaev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan "Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari" nomli uslubiy qo'llanmada quyidagi fikrlar ilgari surilgan: ekspert xulosasining ilmiy jihatdan to'liq asoslanganligini tekshirish jarayonida xulosada bayon etilgan faktlar, ekspertlar tomonidan qo'llanilgan tadqiqot uslublari, xulosaga ilova qilingan materiallar tekshiriladi va baholanadi. Bunda ekspertiza tayinlagan organ mansabdor shaxsiga quyidagi savollardan olinadigan javoblar ko'mak beradi:

- 1) Tergovchi tomonidan qo'yilgan savollar ekspertning bilimlari doirasida hal etilganmi, ekspertiza xulosasi uning maxsus bilimlariga asoslanganmi?
- 2) Ekspertiza to'xtamlarini asoslash uchun ekspert tomonidan foydalanilgan ilmiy qoidalar to'g'rimi?
- 3) Ekspert tomonidan tadqiq etilgan ob'ektlar maqbulmi?
- 4) Ekspert xulosasi haqqoniyimi?
- 5) Ekspertga taqdim etilgan boshlang'ich materiallar to'g'rimi?
- 6) Ekspert tomonidan o'tkazilgan tadqiqot to'liqmi?
- 7) Ekspert to'xtamlari o'tkazilgan tadqiqot bilan tasdiqlanganmi?
- 8) Ekspert tadqiqoti natijasida olingan faktik ma'lumotlar ishda bo'lgan dalillarga mos keladimi? [4; 69-b].

Yuqoridagi kabi savollarga javob topish natijasida ekspertiza tayinlagan organ mansabdor shaxsi ekspert xulosasining boshqa dalillar bilan taqqoslanishiga hamda ekspertiza xulosasi bilan boshqa dalillar o'rtasida muvofiqlik yoki ziddiyatlar mavjudligini o'rganishga ko'mak beradi.

Basharti ziddiyatlar aniqlansa, tergovchi ekspertni so'roq qilishi yoki qayta ekspertiza tayinlashi mumkin. Shu o'rinda qayd etish kerakki, ekspertiza xulosasi va boshqa dalillardagi faktik ma'lumotlar o'rtasida ziddiyat yoki qarama-qarshilikning aniqlanishi darhol ekspert tomonidan kelingan xulosaning noto'g'riligi haqida fikrga kelish uchun asos bo'lmasligi lozim [10; 123-b]. Bunda tergovchining vazifasi ishdagi qarama - qarshi dalillarga tanqidiy baho berish va haqiqatni aniqlashdan iboratdir.

Tergovchi ekspert xulosasiga baho bera turib, quyidagi fikrlardan biriga keladi:

- 1) ekspert xulosasini to'liq va asosli, undagi faktik ma'lumotlarni ishga aloqador va maqbul xususiyatga ega deb topish;
- 2) ekspert xulosasini yetarli darajada aniq va to'liq emas deb topish, zarur hollarda qo'shimcha ekspertiza tayinlash yoki ekspertni berilgan xulosasini tushuntirib berishi yoxud qo'shimchalar bildirishi uchun so'roq qilish;
- 3) ekspert xulosasini asossiz yoki to'g'riligi shubha tug'diruvchi deb topish, zarur hollarda qayta ekspertiza tayinlash yoki ekspert to'xtamlarini tekshirishga qaratilgan boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish [4;69-b].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan adabiyotdan ma'lum bo'lishicha tergovchi tomonidan ekspert xulosasiga baho berish natijasida qabul qilgan qarorlari ichida xulosaning ilmiy asoslangan yoxud ilmiy asoslanmagan degan fikrga kelishi aniq va ravshan ko'rsatib o'tilmagan.

Fikrimizcha, ma'lum bir tadqiqot yo'nalishi bo'yicha tuzilgan ekspert xulosasining ilmiy asoslanmagan deb topish uchun ekspertiza tayinlagan vakolatli organ mansabdor shaxsida ushbu tadqiqot turi bo'yicha maxsus bilimning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq.

Biroq, yuqoridagi talab bir so'z bilan aytganda imkonsizdir. Sababi bugungi kunda ekspertiza turlari ko'p bo'lishi bilan birga mazkur turlar kundan-kunga ortib bormoqda. Bularning barchasi bo'yicha bilimlarning bo'lishi esa imkonsizdir. Fikrimizning isboti tariqasida mazkur jarayonni bevosita mavzu doirasida ya'ni, xatshunoslik ekspertizasi yo'nalishida ko'rib tahlil qilinadi. Ma'lumki xatshunoslik ekspertizasi an'anaviy kriminalistik tadqiqotlar ichida eng murakkab bo'lgan ekspertiza tadqiqoti hisoblanadi [11; 75-b]. Ushbu ekspertiza tadqiqoti bo'yicha shaxsda maxsus bilim bo'lishi uchun belgilangan ma'lum bir minimal o'quv kurslaridan va yakuni bo'yicha imtihonlardan o'tishi lozimdir [12; 152-b]. Shunday bo'lgan taqdirda shaxsda xatshunoslik ekspertizasi mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilim shakllanishi mumkin.

Shu o'rinda o'rinli bir savol: Barcha tergovchilarda xatshunoslik ekspertizasi yo'nalishida maxsus bilim mavjudmi? Javob: albatta yo'q. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Mazkur javob bilan tanishar ekanmiz tabiiyki quyidagi: agar ekspertiza tayinlagan organ mansabdor shaxsida ushbu yo'nalishda maxsus bilim mavjud bo'lmasa, u qanday qilib xatshunoslik ekspertizasi tadqiqoti yakuni bo'yicha tuzilgan ekspert xulosasining ilmiy asoslanganlik masalasini baholashi mumkin degan o'rinli bir savol tug'ilishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi JPK 176-moddasida qayta ekspertiza tayinlanganda ekspert (ekspertlar komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan ekspert tekshiruvi usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkinligi aniq ravshan ko'rsatib qo'yilgan [5]. Ushbu moddada ko'rsatilgan qoida va JPKning 187-moddasida ko'rsatib o'tilgan ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligiga baho berish masalasi o'rtasida ozgina nomutanosiblik borday ko'rinishi tabiiy. Shu sababdan ham ushbu ikkita moddani bir-biriga moslashtirish lozim.

Zero, O'zbekiston Respublikasi JPKning 176-moddasida ekspert xulosasining ilmiy asoslanganlik masalasiga oydinlik kiritish uchun aynan ushbu yo'nalishda maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassis ekspert tomonidan qayta tadqiqot olib borish orqali javob berish mumkinligi nazarda tutilgan.

Nazarimizda, bu xar tomonlama to'g'ri qaror. Sababi ma'lum bir ishdagi xato yoxud kamchilikni topish uchun albatta shu yo'nalishdagi mutaxassis bo'lgani xar tomonlama ma'qul. Zero mutaxassis bo'lmagan kishi ayrim holatlarga yetarlicha ahamiyat bermasligi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi JPKning 187-moddasi birinchi qismi quyidagi ko'rinishda yangidan tahrirdan o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Ekspert xulosasi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. URL:<http://femida-science.ru/index.php/home/vypusk-9/item/277> osobennosti-sostavleniya-zaklyucheniya-eksperta-rocherkoveda-i-rekomendatsii po oformleniyu-rezultatov-issledovaniya
2. Собиров, Ф. Б. Ў. (2024). ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖЛИКЛАР ИМЗОЛАРИ БЎЙИЧА ХАТШУНОСЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИНИ ЎТКАЗИШ АМАЛИЁТИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(7), 29-31.
3. IIV EKBMning 2023-yil yakunlari yuzasidan qilingan hisobot – Toshkent. 2024.
4. Н.Х.Болтаев, С.О.Урозбайев, Қ.К.Байзақов, I.R.Astanov “Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari” uslubiy qo'llanma // Toshkent.2016. S.68-70.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. 22.09.1994 // URL <https://lex.uz/docs/111460>.
6. O'zbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonun 01.06.2010 // URL: <https://lex.uz/docs/1633102>.
7. ФБ, С. (2023). ТИНЧЛИК ВА ИНСОНИЯТНИНГ ХАВФСИЗЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИДА ХАТШУНОСЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИНИ ТАЙИНЛАШ ВА ЎТКАЗИШ. Та'лим фидойилари, 6, 221-228.
8. URL: <https://cyberpedia.su/9xb5d0.html>

INNOVATIVE  
ACADEMY